



# “ZAKOVAT” INTELLEKTUAL KLUBI

>> [Bosh sahifa](#) >> [Yangiliklar](#) >> [Savollar](#) >> [Blits savollar](#) >> [Svoya igra](#) >>  
[Savol yo'llash](#) <<

## 95 ta savol to'plami

**1-savol:** Chester Karlson o‘zining nusxa ko‘chiruvchi ixtirosini nima uchun XEROX, ya‘ni o‘zbekchasiga “quruq” deb nomlagan?

**Javob:** O‘sha davrda faqat namlik orqali nusxa ko‘chiruvchi apparatlar bo‘lgan xolos.

**2-savol:** Har yili Gannibal shahrida bir festival bo‘lib o‘tadi, u yerda o‘tadigan devor bo‘yash bo‘yicha musobaqa ayniqsa qatnashchilar o‘rtasida katta qiziqishga sabab bo‘ladi. Endi o‘ylab ko‘rib aytingchi bu festival kimning nomi bilan ataladi?

**Javob:** Mark Tven

**3-savol:** 1 ta Yaguar, 2 ta it, 1 ta qunduz, 4 ta ayiq, 1 ta burgut, 4 ta boyqush, 1 ta o‘rdak, 1 ta o‘rdakburun, 1 ta yexidna, 1 ta yenot, bir bola va bir qiz, 1 ta quyon, 1 ta koyot, 1 ta bo‘ri hamda 2 ta yunon ma‘budi. Ushbu qatordagi bog‘liqlikni toping?

**Javob:** Olimpiada talismanlari.

**4-savol:** Aynan shu sport inventarining mustahkamligi 120 mil/soat tezlikda yadro otish qudratiga ega bo‘lgan pnevmatik pushka orqali sinaladi. Qaysi inventar?

**Javob:** Xokkey darvozaboni shlemi.

**5-savol:** Farer orollaridagi mahalliy aholi Jyul Vernni yozishicha oroldagi juda yog‘li bir qushning o‘ligidan tayyor ro‘zg‘orda kerakli bir narsa sifatida foydalanishgan. Nima sifatida?

**Javob:** Sham sifatida.

**6-savol:** Bu daho yaratgan ixtirosini stol ustiga qo‘yib o‘rinbosari Jon Kruezining diqqatini jalb qiladi va ixtirosining “shoxchasi”ga qarab “Merining qo‘zichoqlari bor edi” deb qichqiradi. Keyin nima ro‘y berganini bilgan bo‘lsangiz, menga kashfiyotchini emas, uning ixtirosi nima ekanligini ayting.

**Javob:** Fonograf (Tomas Edison ovozini yozib olgach apparat uni qaytaradi)

**7-savol:** 1912 yil 13 noyabr Namanganning Chuqur ko'cha dahasida yashovchi Mamatxo'ja va Xolambibilarning oilasida dunyoga kelgan o'gil farzandga tegishli Kemerova viloyati ichki ishlar boshqarmasida saqlanayotgan "delo"ning 91-betini o'qiyman:

"Maxbus 1944 yil 9 mart kuni soat 14:00 da o'pka sili 2-darajali pellogra va yurak quvvatsizligi natijasida 3-statsionarda vafot etdi."

Bu kim edi?

**Javob:** Usmon Nosir

**8-savol:** Rossiya, Qozog'iston, Mug'uliston, Qirg'iziston, Shimoliy Koreya, Tojikiston, Vetnam, Afg'oniston, Makao, Pokiston, Laos, Nepal, Myanma, Butan. Agar bu davlatlarni nima birlashtirib turganini aniqlagan bo'lsangiz men aytmagan yana bir davlatni topishingiz kerak.

**Javob:** Hindiston (Barchasi Xitoy bilan chegaradosh)

**9-savol:** Qo'l yozmadan na'muna keltiraman:

"Agar kraxmallangan matodan tikilgan vintli qurilma ish bersa v tez aylansa, u havoda tirgak xosil qiladi hamda bulutlar orasiga ko'tariladi."

Menga qo'l yozma muallifini va ta'riflangan chizma nimaning ajdodi ekanligini ayting.

**Javob:** Leonardo Da Vinchi, vertalyot

**10-savol:** Dunyoda uning 600 dan ortiq turi mavjud. Nima uchundir uni ishlab chiqaruvchi dastlabki fabrika Italiyada emas, balki 1848 yili Nyu-Yorkdagi Bruklin shahrida Antoini Segera tomonidan ochilgan. Gap nima haqida ketayotganligini topgan bo'lsangiz, u sifatli bo'lishi uchun tarkibida nima kamida 5.5% ni tashkil etishi kerak?

**Javob:** Tuxum (Gap Makaron haqida bormoqda)

**11-savol:** Qo'lsiz oyoqsiz eshik ochar. Bu shamol ekanligi hammamizga yoshlikdan ma'lum. Ammo Ginnesning Rekordlar kitobiga kirgan Litvalik Antanas Kontrimas 2001 yili 11 martida 59 kg.li qizchani 10,93 soniya qo'l-oyoqsiz qanday qilib ko'tarib turganligini ayting?

**Javob:** Soqoli bilan

**12-savol:** Ma'lumki sport o'yinlarida muhim rolni hakamlar emas, balki sportchilarning o'zlari bajarishadi. Ammo qaysi sport turida bitta o'yinchiga naq 6,5 hakam to'g'ri keladi. Bu qaysi sport?

**Javob:** 2-kishilik Kort Tennisi

**13-savol:** U og'ir tanazzul vaqtida tug'ilgan. Oilasini erta tark etishga to'g'ri kelgan. Tirik qolish uchun konsertlar qo'ya boshlagan. So'ngi konserti u uchun fojiali yakunlangan. Menga bosh qahramon va uning qotilini ayting.

**Javob:** Bo'g'irsoq va Tulki

**14-savol:** Har birimiz yoshligimizda juda ko'p ertaklar eshitganmiz. Yalmog'iz kampir, ko'rinmas odam va h.k. Siz esa menga olti oyoqli, bir boshli, ikki ko'zli va dumi bor mavjudod muallifini ayting.

**Javob:** Mayn Rid (“Boshsiz chavandoz”)

**15-savol:** Ma'lumki urushlar hech qaysi bir davlat yoki mamalakatga yaxshilik olib kelmagan. Umuman insoniyat uchun katta zarar. Ammo XX asrda Yevropadagi bir davlatda bo'lib o'tgan urush Yevropadagi boshqa bir davlatga quvonchli damlarni hadya etgan. Sizlar esa menga o'sha ikkita davlatni ham ayting.

**Javob:** Daniya – Yugoslaviya. Daniya 1992 yil Futbol bo'yicha Yevropa Chempioni bo'lgan.

**16-savol:** Miloddan avvalgi 47 yilda Rim Senatiga bir insondan xat keladi. Qani bir yaxshilab o'ylab ko'ringchi o'sha xatda qaysi 3 ta so'z yozilgan bo'lishi mumkin.

**Javob:** Vini Vidi Vichi (Keldim, ko'rdim, g'alaba qildim)

**17-savol:** Antik zamonlarda Hind va Ganga daryolari faunalari o'rganilgach Nil daryosining manbasi Hindistondan boshlanadi degan fikrga kelishgan. Nimalar bu fikrni vujudga kelishiga sabab bo'lgan?

**Javob:** Timsohlar

**18-savol:** Rim imperatori Filipp Arab milodiy 248 yil 6 aprel kuni juda dabdabali bayramlar o'tkazadi. Savol u nimani nishonlagan edi?

**Javob:** Rimning 1000 yilligini

**19-savol:** Uning asarlari nomida besh, o'n besh, sakson, yigirma ming va hatto besh yuz million raqamlarini uchratish mumkin. U kim?

**Javob:** J.Vern

**20-savol:** AQSH Indiana Shtati Universitetining asosiy kutubxonasi har yili 1 dyumga (2.54 sm. ga) yer ostiga kirib ketmoqda. Sababi esa arxitektore va quruvchilar qilgan xatodir. Diqqat savol: loyihalashtirilayotganda ular nimani hisobga olishmagan?

**Javob:** Kitoblar og'irligini

**21-savol:** Bu “mashina” umuman harakatlanish uchun mo'ljallanmagan. Ammo agar biz yil bo'yi butun dunyodagi ularning yurgan “yo'li”ni hisoblab chiqsak, ular avtomobil va samolyotlar bosgan masofadan ortib ketadi. Hammamiz ko'rgan va ba'zilarimizda bor bu “mashina” nima ekanligini toping.

**Javob:** Soat

**22-savol:** Kastor va Polidevk, Gerakl va Meleagr, Orfey, Peley va Telamon. Ularning boshqaruvchisi kim?

**Javob:** Yason

**23-savol:** Nima uchun oshxonamizdagi rakvina tagidagi truba “S” shaklida bo’ladi? Bu holatni biz hammom vannasi tagida ham kuzatishimiz mumkin.

**Javob:** Kanalizatsiyadagi yoqimsiz hidlarni xonaga kirishdan saqlaydi

**24-savol:** Stalin, Brejnev, Andropov, Chernenko va Gorbachyov u mansab egasi bo’lishgan. Lenin va Xrushyov esa bo’lmagan. Bu qaysi mansab?

**Javob:** Bosh kotib (Gen. Sekretar)

**25-savol:** A, K, Q, J, ..... qatorni davom ettiring.

**Javob:** 10, 9, 8, .....(O’yin kartalari A – Tuz(Ace), K-Qirol (King), Q-Dama (Queen), J-Valet (Jack))

**26-savol:** Ma’lumki 19 asrda dunyodagi ko’pgina kuchli kapitalistik davlatlar singari Rossiyada ham temir rudasi qazib olish va temir quyish juda rivojlangan. Rossiyada ishlab chiqarilgan temirning 4 dan 3 qismi bitta narsa uchun ishlatilgan. Nima uchun?

**Javob:** Temir yo’l qurishga

**27-savol:** “Transamerikan ekspress” da sayohat qilayotgan bir fransuz shunday eslaydi, ya’ni vagon restoranida u qo’shni stolda o’tirgan kishi bilan bir xil ovqat buyurgan bo’lsada, u sal keyinroq ovqatlanib bo’lgani uchun arzonroq to’laydi. Buni sababini so’raganda ofitsiant tushuntirib beradi. Xo’sh ofitsiant qanday javob bergan?

**Javob:** Biz xozir boshqa shtatga kirib keldik, bu yerda soliqlar arzonroq. Shuning uchun sizning ovqatingiz arzon bo’ldi.

**28-savol:** Ba’zi fransuzlar xitoyliklar haqida shunday xazillashishadi. Xitoyliklarda: 3 ta armon bor: ular poroxni ixtiro qilishgan, ammo pushkani emas, ular yozuvni chop qilishni(pechat) ochishgan, ammo gazetani emas, ular komposni ixtiro qilishgan, ammo .....ni emas. Xo’sh Xitoyliklar nima qilishmagan?

**Javob:** Amerikani ochishmagan

**29-savol:** Stokgolmdagi moliyaviy Boshqarmada ishlaydigan Elfrid Karlson 20 dan ortiq kuchukcha hurushni biladi. Bu nimaga kerak?

**Javob:** U kuchuklarga soliq soladi.

**30-savol:** Buni qarangki sizni chalmoqchi bo’lgan shaxs sizga qurbonlik ham bermoqchi. LKekin

siz uni qabul qilmasligingiz ham mumkin. Aytingchi sizni chalmoqchi bo'lgan shaxs kim?

**Javob:** shaxmatchi (Gambit – bu “chalmoq” degani. Bunda bir sipoh qurbon qilib yakunda g'alabaga erishiladi)

**31-savol:** Mashhur siyosatchi Otto fon Bismark shunday gap aytgan: Odamlar ovdan keyin, sayr vaqtida va undan oldin ko'proq yolg'on gapirishga moyil bo'ladilar. Savol, nimadan oldin?

**Javob:** Saylovdan oldin.

**32-savol:** Birinchi marta Washington metrosiga tushgan inson hayratda qolishi tayin. Unda elektr yoritgichlar mahorat bilan ishlangan. Odamlarda shunday gap bor: “Washington metrosi shunday yoritilganki, .....Xuddi narigi dunyodagidek. Savol nuqtalar o'rniga qanday jumla qo'yilishi kerak?

**Javob:** O'z soyangni ko'rmaysan. Narigi dunyoda esa insonlarning soyasi bo'lmaydi.

**33-savol:** Olimpiyada tarixida 100 metrga yugurish bo'yicha chempionlar ko'p. Lekin ular orasida 1900 yili chempion bo'lgan Tomas Berk nomi alohida qayd etilgan. U boshqa sportchilardan farqli o'laroq u narsani birinchi bo'lib qo'llagan va chempion bo'lgan. Aytingchi Tomas Berkning alohida qayd etilishiga sabab nima?

**Javob:** U birinchi bo'lib yugurishda tizzalab start olishni boshlab bergan.

**34-savol:** 1970 yillari SSSRda ishlab chiqarilayotgan konservalarning ustiga ma'lum bir harflar yozim qo'yilgan. Masalan: “A”, “Á” va h.k. Mantiqiy o'ylagan holda bu harflarning eng oxirgisi qaysi va bu qanday ma'noni bildirishini ayting

**Javob:** Oxirgisi “Ë” xarfi.

**Izoh:** Bu xarflar konservaning qaysi oyda chiqqanligini bildirgan. “A” – yanvar, “Á” – fevral va h.k. Rus alifbosida 12 xarf bu “Ë”

**35-savol:** Yunonlar uni sfinks deb atashgan. U ishlatgan qatl uslubi odamlarni jalb qilmaydi. Bir mashhur adabiy qahramon ham bu qatl uslubidan foydalangan. Endi menga uning nomini emas, yunonchada sfinks qanday ma'noni bildirishini ayting.

**Javob:** Bo'g'uvchi.

**Izoh:** Gap bo'g'ma ilon haqida bormoqda. Adabiy qahramon bu – Otello.

**36-savol:** Bu narsa 1895 yili Syurixlik bir kishi tomonidan ixtiro qilingan. Lekin uning ommaviylashishi sekin davom etgan. Faqatgina I jahon urushiga kelib uning targ'iboti keng ko'lamda bo'lgan va uning qulayligi urushda o'z isbotini topgan. Menga gap nima haqida ketayotganligini emas, balki o'sha ixtirochining ismini ayting.

**Javob:** Jillet (Gillet)

**37-savol:** Ularning soni hozirgi zamon olimlari tomonidan 54-58 deb aytiladi. Gap shundaki

ularning ko'rinishlari har xil, hatto ba'zilarining chegarasi yo'q. Ulug' bobomiz Abu Rayxon Beruniy ularning nechtasini bilganini bilmadiku, lekin qadimgi yunonlarga ularning 7 tasi ma'lum bo'lgan. Gap nima haqida ketmoqda?

**Javob:** Dengiz

**Izoh:** Sargossa dengizining chegarasi yo'q. Beruniy asarlarida ko'plab dengiz nomlari keltirilgan.

**38-savol:** Yaponlarda “be” o'tirmoq degani. Xo'sh unda “teribe” qanday tarjima qilinadi?

**Javob:** Televizor oldida o'tirmoq

**39-savol:** Sovet haykaltaroshi Kuratov 1 kishining yubileyi uchun uning haykalini yasaydi. Unda o'sha inson yoniga kuchuk, mushuk, maymun, g'oz kabi bir necha hayvonlarning ham haykallarini joylashtiradi. Diqqat savol, u kimning haykalini yasagan edi?

**Javob 9:** Mashhur masalchi Krilov

**40-savol:** 1967 yili Parijda bir fotoatelye ochiladi. Uning mijozlari tobora ko'plab topila boshlaydi. Bu fotoatelye har doim gavjum va shovqin-suronli edi. Aytingchi, bu fotoatelye boshqalaridan qanday farq qilgan?

**Javob:** Bu fotoatelyeda itlar suratga olingan

**41-savol:** II jahon urushi davrida nemislar Leningradni bosib olganlarida bir itlar fermasiga duch keladi. Undagi barcha itlarni o'ldirmoqchi bo'ladilar. Lekin nemislar bu fikridan qaytadi. Agarda bunda hech qanday harbiy maqsadlar ko'zlanmagan bo'lsa, unda ularning bunday qarorga kelishining sababi nimada edi?

**Javob:** Bu itlar mashhur olim Pavlov tajribalar o'tkazgan itlar edi. Shuning uchun ilm-fan yo'lida ularni o'ldirmaganlar.

**42-savol:** Shimoliy Amerika hindulari uchun u uy, idish-tovoq, qurol, oziq-ovqat, kiyim-kechak vazifani o'tagan. Savol, u nima?

**Javob:** Bizon

**43-savol:** 25 litr suvni atigi bir tomchi u bilan bulg'ash mumkin.

**Javob:** Neft

**44-savol:** AQShda u **o.k.y.**, Yaponiyada **y.o.k.**, bizda esa **k.o.y.** ko'rinishida. Savol, gap nima haqida ketmoqda?

**Javob:** Bu sananing ifodalanishi edi.

**Izoh:** AQShda oldin oy, so'ng kun, oxirida yil aytiladi. Yaponlarda oldin yil, keyin oy, so'ng kun. Bizda esa kun, oy, yil aytiladi. Masalan: 17.03.1977

**45-savol:** 1958 yili Shvetsiyada bo'lgan futbol bo'yicha Jahon chempionatida 16 jamoani

guruhlarga bo'lish uchun qur'a tortish marosimi bo'lgan. Unda barcha jamoalar hududiy yaqinligidan kelib chiqib 4 guruhga bo'lingan. Bunda 1-guruh "G'arbiy Yevropa", 2-guruh "Sharqiy Yevropa", 3-guruh "Amerika" deb nomlangan. Xo'sh unda oxirgi 4-guruhga qanday nom berilgan edi?

**Javob:** "Buyuk Britaniya"

**Izoh:** O'sha yili Buyuk Britaniyaning 4 jamoasi ham chiqqan edi: Angliya, Shotlandiya, Uels, Irlandiya

**46-savol:** Yunon faylasufi Demokritning bir gapini bor: Agarda kimga yaxshi kuyov uchrasa unda u o'g'illi bo'ladi. Agar yomon kuyov uchrasa... Jumlani to'diring.

**Javob:** Qizingdan ham ayrilasan

**47-savol:** Sigir - 4, cho'chqa - 8, tipratikan - 10, yaguar - 11, ko'rshapalak - 20. Xo'sh, bu ko'rsatkich insonda nechaga teng?

**Javob:** 7-8 soat

**Izoh:** Bu 1 sutkada normal uxlash vaqti edi.

**48-savol:** Bu ro'yxat boshida Indoneziya turadi. 2-o'rinda Yaponiya. 3-o'rinda 2000 yilgacha Buyuk Britaniya turgan. Xozir Filippin 3-o'ringa ko'tarilib olgan. Savol, bu ro'yxat nimaga qarab tuzilgan?

**Javob:** Orollar soni bo'yicha.

**Izoh:** 2000 yili Buyuk Britaniyaning ba'zi mustamlakalari ozodlikka chiqqan.

**49-savol:** M.Gerasimov "Arablar va dengiz" asarida bir ma'lumotni keltiradi. Uning aytishicha, XX asr boshlarida yo'lovchi kemalarga ayollar chiqarilmagan. Kapitanlar ayollarni kemada bo'lishini xohlamagan. Chiqarsa ham, 2-3 baravar haq evaziga chiqarishgan ekan. Buning sababi nimada?

**Javob:** Ular ayollar fakolat olib keladi deb o'ylashgan.

**50-savol:** Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra arablar istilo qilgan hudud aholisi arablardan moddiy manfaatdor bo'lishgan. Arablar mazkur hudud aholisiga bir ishlari uchun 2 dirxamdan berishgan. Qanday ish evaziga?

**Javob:** Masjidga kelgani uchun

**Izoh:** "Islom dinini qabul qilish" javobi qabul qilinmaydi

**51-savol:** Turklar uni "shayton ovozi", nemis dengizchilari "musson shamoli", inglizlar "eng baxtsiz kishilar ovozi" deya ta'riflashgan. Bizda ham bu narsa yaxshilikka olib kelmaydi degan aqida bor. Gap nima haqida ketmoqda?

**Javob:** Hushtak chalish

**52-savol:** Ularning birinchisi yevrey, keyingilari yunon, italyan, fransuz, ingliz, portugal, ispan. Menga bularning xozirgisi va undan oldingisini nomma-nom ayting.

**Javob:** Benedikt XVI va Ioan Pavel II

**Izoh:** Rim papalari haqida gap ketmoqda

**53-savol:** 1751 yili Angliyadagi bir reformadan ko'chilik norozi bo'lgan. Ular mazkur islohat tashkilotchisi bo'lgan lordning uyiga borib **"Bizning 2,5 ...mizni qaytaring"** deya aytishgan. Ular nimasini qaytarishni talab qilishgan va bu qanday islohat edi?

**Javob:** "2,5 oyimizni qaytaring"

**Izoh:** O'sha vaqti Angliyada kalendar o'zgargan. Natijada 2,5 oy keyinga surilgan

**54-savol:** AQShda har bir shtatning o'z "Tayms"i bor. Masal, "New York Tayms", "Los-Angeles Tayms" va h.k. Unda aytingchi Alyaskada chiqadigan "Tayms" gazetasining nomi qanday ?

**Javob:** "Tundra Tayms"

**55-savol:** Yevropa politsiyasi bronjeletni ekstremistik harakatlarda, ish tashlashlar vaqtida va har hafta bir joyga borganda kiyishadi. Savol, qayerga borganda ular bronjelt kiyib olishadi?

**Javob:** Futbol matchlariga

**56-savol:** Angliya milliy balet teatrida boshqa barcha teatrlar kabi ta'til vaqti ham bor. Ular ta'tildan keyin mavsumning boshlanishini "Otello", "Spartak" kabi asarlar bilan boshlashadi. Lekin ingliz aktyorlari hazillashib mavsumni ana shu balet bilan boshlab bo'lmaydi deyishadi. Qaysi sahna asari?

**Javob:** "Oqqush ko'li" baleti ("Éåááááéíàÿ îçãðî" )

**Izoh:** Sababi barcha aktyorlar ta'tildan quyoshda qorayib qaytgan bo'ladi

**57-savol:** XV asrda Parij shahri 3 qismga bo'lingan. 1 – Sobor, 2 – Luvr. 3 – qism qanday nomlangan?

**Javob:** Sarbonna

**58-savol:** 85 yoshdagi Akademik uylanmoqda. U o'z to'yida qadah so'zi aytmoqda: "Sevgi misoli ummon. Men uningsiz yasholmayman. Uni sevdim va bundan uyalmayman". Bu kimning to'yi edi?

**Javob:** Jak Iv Kusto

**59-savol:** Amerika shifokorlari televizorning insonlarga salbiy ta'siri to'g'risida tajribalar o'tkazdi. Ularning aniqlashicha televizor yonida ko'p o'tirish ko'z kasalliklarini keltirib chiqara ekan. Ular bu holat yana bir mintaqaga xos bo'lgan kasallikni keltirib chiqarmoqda deya ma'lumot berishdi. Bu qanday kasallik?

**Javob:** Semizlik

**60-savol:** Avstraliya aboregenlari xo'rozni "azonlab ..... qush" deyishadi. Bir millat u ishni qo'rqmay qiladiganlarni jasur, mard hisoblashgan. Siz menga bu qanday ish ekanligini emas, o'zbeklardagi uning eng kamida 3 turini ayting.

**Javob:** Kulish, tirjayish, jilmayish

**Izoh:** Abarogenlar xo'rozni "azonlab kulayotgan qush" deyishadi.

**61-savol:** 1997 yilning 4 avgustidan keyin NASA ning internet saytiga 220000000 ga yaqin kishi tashrif buyurdi. Ular u yerda nimani ko'rmoqchi bo'lishgan?

**Javob:** Mars sayyorasi rasmlarini (Mars Pathfinder sun'iy yo'ldoshi tomonidan uzatilgan)

**62-savol:** U gollivud, ko'zoynakli, tuxumli, gurunchli va hatto mono bo'lishi mumkin! U nima?

**Javob:** Dieta

**63-savol:** Shveytsariyada ayrim qamoqxonalarda oq bayroq ilib qo'yishadi. Bu nimani bildiradi?

**Javob:** Oq bayroqni qamoqxonada bitta ham qamalgan odam bo'lmagan taqdirda ilib qo'yishadi

**64-savol:** Qaysidir bir amerikalik millioner o'limi oldidan o'z pullaridan ma'lum bir foizni jiyaniga, u universitetda o'qishini tugatib olishi uchun ajratib berilishini vasiyat qilgan. Bundan so'ng jiyan Ginnes rekordlar kitobiga kiritilishiga arzigulik o'ziga hos bir rekord o'rnatgan. Bu qanaqa rekord?

**Javob:** U vafot etguncha bu universitetni tugatmagan

**65-savol:** Qaysi hasharot to'g'risida ma'lumotni shotland radiosi har kunlik ob-havo ma'lumotida aytib o'tadi?

**Javob:** Chivinlar to'g'risida

**66-savol:** Ularni birinchi bo'lib 1947 yilda tog'larda amerikalik tadbirkor Arnold ko'rgan. O'sha paytlardan beri ularni AQShning o'zida 80000 ga yaqin odam ko'rgan. Ular nima?

**Javob:** Uchar likopchalar

**67-savol:** Germaniyada birinchi bor qon topshirgan kishiga an'ana bo'yicha kinoga bilet beriladi. Qaysi filmga?

**Javob:** "Drakula"

**68-savol:** An'anaviy ispan korridasi uzog'i bilan 20 daqiqa davom etadi xolos, lekin tomoshabinlar uni soatlab tomosha qilishi mumkin. Nima uchun bitta korridaning vaqti 20 daqiqa bilan chegaralangan?

**Javob:** 20 daqiqaga yaqin vaqtdan so'ng buqa qizil matoni emas odamga hujum qilish kerakligini tushunadi, bu esa torreador hayoti uchun xavflidir

**69-savol:** Agar amerikalik Floridada tug'ilgan bo'lsayu, uning tug'ilganlik xaqidagi guvohnomasida "New York J161TH" deb yozilgan bo'lsa, u aynan Floridaning qayerida tug'ilgan?

**Javob:** Bu raqamli avtomobilda. Tug'ilish vaqtida avtomobil Florida hududida bo'lgan

**70-savol:** 1993 yilda mashhur "Kristi" auksion firmasi Xalqaro Astronomik Uyushma bilan kelishgan holda sotuvga bir necha lot(sotiladigan buyum) qo'ydi. Bu firma sotuvga boylar o'rtasida juda mashhur bo'lgan nima qo'ydi?

**Javob:** Bir necha nomsiz yulduz. Lotni sotib olganga yulduzga o'z nomini berish imkoni beriladi

**71-savol:** Ob-havoning ko'p yillar davomida o'rganish natijasida olimlar shuni aniqlashdiki, yirik shaharlarda haftasiga ikki kun xavo boshqa kularga qaraganda sovuqroq bo'larkan. Yirik shaharlarda qaysi ikki kunda sovuqroq bo'ladi va nima uchun?

**Javob:** Shanba va yakshanba, chunki bu kunlari zavod va fabrikalalar ishlamaydi va o'zidan issiq havo chiqarmaydi

**72-savol:** Amerikalik olimlar aholining televizor ko'rish jarayonini tadqiqi qilish vaqtida qiziq bir bog'liqlikni aniqlashdi. Reklama qo'yilishi vaqtida shahar kommunal xizmatining birida yuklanish keskin oshib ketadi. Bu qaysi kommunal xizmat?

**Javob:** Kanalizatsiya

**73-savol:** Germaniyada "Unsicht" nomli restoran mavjud bo'lib, uning nomi "ko'rinmas" deb tarjima qilinadi. Restoran nomining bunday qo'yilishiga 2 ta sabab mavjud. 1-si barcha xizmatlar qorong'ulikda amalga oshiriladi. 2-sini siz bizga yozib berasiz.

**Javob:** U yerda ko'rlarga xizmat qilinadi.

**74-savol:** Armiya davlatning asosiy kuchidir. Misol uchun Shimoliy Koreyada axolining 5% armiyada xizmat qiladi. Ushbu mamlakatda esa 2004 yilga kelib eng internatsional armiya xosil bo'ldi. 7622 askar 136 ta turli millatga mansubdir. Savol, bu qaysi mamlakat?

**Javob:** Frantsiya

**75-savol:** Amerikada o'tkazilgan so'rovlar natijasida, "siz kim bo'lmoqchisiz?" degan savolga 40% bog'cha yoshidagi qizlar aynan shunday javob beradilar. 1999 yilda ekranlarga chiqqan filmning bosh qaxramoni xam shu jarayni yaxshi ko'rsa kerakki, u ishni boshlab oxiriga yetkazmasdan ketib qolar edi. Diqqat savol, bu "kasb"ni yozib bering.

**Javob:** kelin

**76-savol:** Uni bugungi kunda xam Djon Kennedi, Geydar Aliev, Leonardo Da Vinchi, Sharl de Goll qabul qilib kelmoqda. U bevosita 747, 757, 767, 777 sonlari bilan bog'liq bo'lsa, menga 1

daqiqadan keyin uni bir ingliz soʻzi bilan taʼriflab bering.

**Javob:** Boing

**77-savol:** 2007 yilning boshida boʻlib oʻtgan bir voqeadan keyin koʻpgina AQShning boylari unga oʻz uylarini taklif qila boshladilar. Albatta uning vaqti ziq boʻlganligi sababli u bu uylarni koʻrib chiqib, tanlashni oʻzining yaqin bir insoniga topshirdi. Biz esa sizdan ishonib topshirgan insoniga bogʻliq guruh nomini yozib berishingizni soʻraymiz.

**Javob:** “Spice Girls”

**Izoh:** Bu inson Bekxem edi. Uning xotini Viktoriya esa aynan shu guruh qoʻshiqchisi xisoblanadi.

**78-savol:** 2006 yilda may oyida San-Paulu shahri qamoqxonasida xaqiqiy janjal boshlandi. Maxbuslar qamoqxona maʼmuriyatidan oʻzlari uchun maʼlum bir vaqtga qoʻshimcha imtiyoz berishlarini talab qildilar. Savol, ushbu tartibsizliklarga qanday voqea bilvosita sabab boʻlgan?

**Javob:** futbol boʻyicha JCh

**79-savol:** 18 aprel tunidayoq minglab insonlar kema toʻxtash joyiga keldilar. Ertalabki soat 8 da 11-avenyudan oʻtib boʻlmasdi. Barcha insonlar oʻzlari uchun eng qimmatli “Yuk”ni kutayotgan edilar. Maksimal aniqlik bilan ushbu insonlar kimlarni kutayotganliklarini yozib bering.

**Javob:** Titanik xalokatidan tirik qolgan insonlarni

**80-savol:** Eyfel minorasi ichidagi esdalik sovgʻalari magazinidan savol muallifi esdalik sifatida Eyfel minorasi maketini sotib oladi. Esdalikdagi narx belgisini olib tashlagach bir yozuvga koʻzi tushadi va xafa boʻlib ketadi. U yerdagi yozuvni siz aniq qilib yozib bering.

**Javob:** Made in China

**81-savol:** Albatta bizga juda koʻp oʻyin turlari mavjud. Xar bir oʻyin ishtirokchilarining foydalanadigan predmet va atributlari mavjud. Biz miriqib oʻynaydigan bir oʻyinda, xammamiz bir narsadan foydalanamiz, ushbu narsa esa oʻz navbatida 85% suvdan iborat. Agar siz qaysi oʻyin xaqida gap ketayotganligini aniqlagan boʻlsangiz, menga biz “foydalanadigan” narsani yozib bering va umid qilamanki bu narsa sizga savol topishingizda yordam beradi.

**Javob:** Miya

**Izoh:** Bu oʻyin “Zakovat” oʻyini edi.

**82-savol:** Yaponiyaning Nagoya shaxrida futbol boʻyicha JCh boʻlib oʻtgan. Oʻyin 10 minutli 2 taymdan iborat boʻlib, tanaffusi esa 20 daqiqa choʻzilgan. Agar siz u yerdagi “futbolchilarni” topgan boʻlsangiz, menga esa nima uchun 20 daqiqa tanaffus berilganini aniq qilib yozib berishingizni soʻrayman.

**Javob:** Batareykalarni zaryadka qilish uchun

**Izoh:** JCh robotlar oʻrtasida oʻtgan.

**83-savol:** Mavzuni davom ettirib yumoristlarning bir gapini to‘ldirishingizni so‘rayman. “Laboratoriyada yangi dangasa-robot yaratildi. Imtixonlar a’lo darajada o‘tdi: robot .....”. Gapni bir so‘z bilan tugating.

**Javob:** Ishlamadi

**84-savol:** Latifa. Er turistik sayoxatdan uyga kelib xotiniga rasmlarni ko‘rsatibdi. “Bu Venetsiya, bu Neapol, bu Rim”. Xotini rasmlar ichidan birini olib: “Juda yaxshi mast bo‘lgan ekansan” – deb rasmni ko‘rsatibdi. Savol rasmda nima tushirilgan edi.

**Javob:** Piza minorasi

**85-savol:** Rossiyada chop etiladigan “Xalqaro huquq” jurnalining birinchi betida 1998 yil yo‘lbars, 2000 yilda baliq, 2001 ilon rasmi chop etilgan. Lekin 1999 yildagi xar bir jurnalda quyovning rasmi bilan bir insonning rasmi chop etilgan. Savol, bu kim?

**Javob:** Pushkin

**Izoh:** Shu yili Pushkinning 200 yillik yubileyi bo‘lgan

**86-savol:** Birinchi marta BU 2001 yilda AQShning harbiy flotida, avia tashuvchi “Enterprayz” da yaratilgan. U 400 odamga mo‘ljallangan, uning birinchi qo‘shirnoq ichidagi boshlig‘i AQSh harbiy kuchlari floti leytenanti, asli kelib chiqishi Arabistonlik Moxi-ed-Din bo‘ldi. Gap nima haqidaligini qisman bo‘lsa xam ayting.

**Javob:** Ko‘chma Masjid

**Izoh:** Masjid javobi xam qabul qilinadi.

**87-savol:** Xitoyliklarda shunday bir ibora mavjud. “Jen do – di shao” Bunda “do” va “shao” “ko‘p” va “kam” ma’nolarini beradi. Siz esa menga to‘liq iborani yozib bering.

**Javob:** “Insonlar ko‘p – yer kam”

**88-savol:** XIV asrda Florentsiyada BUNI savdoda ishlatgan xar bir odam “Sharqqa bosh egish” aybi bilan jazoga tortilishi mumkin edi. Xozirda esa bu deyarli xamma joyda bir shaklda qo‘llaniladi. Bir xudud nomi bilan ataluvchi BU narsa o‘sha xududda boshqacha tarzda qo‘llaniladi. BU nima?

**Javob:** ARAB raqamlari

**89-savol:** Gollandiyadagi xaydovchilikka o‘rgatish maktabidagi yo‘llar atayin juda yomon. Buni aniq sababini ayting?

**Javob:** xaydovchilar xayotda sekinroq yurishlari uchun

**90-savol:** AQSh stamotologi Djozef Berkovskining fikricha bu ayolning yuz tuzilishi insonlar uchun eng tipik ko‘rinishi ekan. Bunday fikrga kelishiga unga uning oldingi tishlari sabab bo‘lgan. Bu ayol kim?

**Javob:** Mona Liza – Djakonda

**91-savol:** Shaxar nomlarini yozib oling: Xenchen, Yanchi, Anbyan, Finchjen, Yanchas... ularni nima birlashtirib turganligini yozib bering.

**Javob:** Buyuk Xitoy Devori

**92-savol:** AQSHlik Don Badj, Morin Konnoli, Avstraliyalik Rod Leyver, Margaret Smit Kort, Germaniyalik Shteffi Graff. Yuqoridagi insonlarni bir umumiylik bog'lab turibdi. Bu qanday bog'liqlik

**Javob:** Bu insonlar katta dubulg'ani qo'lga kiritganlar. Bularning barchasi tennischilar.

**93-savol:** Mashhur sport kiyimlari va buyumlari ishlab chiqaruvchi Adidas kompaniyasi emblemalaridan biri bu "Uch barg" hisoblanadi. Bu uch bargli emblema nimani ifodalaydi?

**Javob:** Bu uch barg uch qit'ani anglatadi

**94-savol:** Boksni hamma yaxshi biladi. Lekin boks atamasi bir sport turidagi jihozlar turuvchi joyni ham anglatadi. Bu qaysi sport turi?

**Javob:** Formula-1

**95-savol:** Outfield, Bol, Ketcher, Pitcher, Xoum-ran atamalari qaysi sport turida ishlatiladi?

**Javob:** Beysbol

[\[Bosh sahifa\]](#) [\[Biz bilan aloqa\]](#) [\[Savol yo'llash\]](#) [\[Bizning manzil\]](#)

**Klub ruxsatisiz ushbu savollardan moddiy manfaatlarda foydalanish mumkin emas.**

**Copyright © ZAKOVAT, 2008.**

**All Rights Reserved.**